# “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarining ekologik ta’siri: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusida anjuman tashkil etildi

// 19.12.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-tarmoq-korxonalarining-ekologik-ta-siri




Bugun “O‘zkimyosanoat” AJ va tarmoq korxonalarining ekologik ta’siri: muammolar, yechimlar va istiqbollar” mavzusida anjuman tashkil etildi

Unda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi mutaxassislari, tarmoq korxonalarining sohaga doir bir qator mas’ullari ishtirok etishdi.




Anjuman kimyo sanoatining atrof-muhitga ta’sirini tahlil qilish, mavjud muammolarga yechim topish, bunda ilg‘or texnologiyalar va xalqaro tajribalarni o‘rganish, qolaversa, barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun ekologik tozalikni saqlash bo‘yicha taklif hamda loyihalarni ishlab chiqish maqsadida tashkil etildi.




Jamiyatning Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamentining Ekologiya va yashil iqtisodiyot bo‘limi rahbari Doniyor Niyozov kimyo sanoatda atrof-muhitga ta’sir etuvchi asosiy omillar bo‘yicha taqdimot qildi.




Ishtirokchilar, shuningdek, mamlakatimizda kimyo sanoatida ishlab chiqarish jarayonlariga qo‘yilgan ekologik talablar va standartlar, qayta tiklanuvchi resurslardan samarali foydalanish, ekologik javobgarlik va axborot shaffofligi bo‘yicha fikr almashdilar.




**“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**